

**Xizmatlar ko'rsatish uchun**  
**OMMAVIY OFERTA**

Toshkent sh.

14.12.2024

Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (bundan buyon matnda – "O'zR FK") 369-moddasiga asosan «DOSKA» Mas'uliyati cheklangan jamiyatining (bundan buyon matnda – "Kompaniya"), Ustav asosida faoliyat yuritadigan, BirBir mobil ilovasi va Internet tarmog'ida [www.birbir.uz](http://www.birbir.uz) manzili bo'yicha joylashgan sayt (bundan buyon matnda – "BirBir platformasi") egasi hisoblangan direktor Andrey Pavlovich Tereshin nomidan har qanday yuridik salohiyatlari jismoniy shaxs nomiga quyida belgilangan shartlarda xizmatlar ko'rsatish uchun Sharhnomalar (bundan buyon matnda – "Sharhnomalar") tuzish yuzasidan rasmiy taklifi (Ommaviy oferta) hisoblanadi.

O'zR FK 370-moddasi 4-qismiga, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 sentyabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'zRQ-792-sonli Qonuni 9-12-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 611-II-sonli Qonuni 4-7-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrdagi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-sonli Qonuni 16-moddasiga asosan quyida keltirilgan harakatlar amalga oshirilgan holatda, yuridik salohiyatlari jismoniy shaxs Ommaviy oferta Akseptini (shartlari qabul qilinishini) amalga oshiradi, bu xizmatlar ko'rsatish uchun Sharhnomalar (bundan buyon matnda – "Sharhnomalar") tuzilishi bilan bir xil kuchga ega, demak u "Buyurtmachi"ga aylanadi, Kompaniya esa "Ijrochi"ga aylanadi, bundan buyon matnda "Buyurtmachi" va "Ijrochi" birgalikda "Sharhnomalar Toraflari" deb yuritiladi.

Yuqorida qayd etilganlar asosida Kompaniya Ommaviy oferta matnini diqqat bilan o'qib chiqishni va Ommaviy ofertada qayd etilgan barcha hujjatlar bilan tanishib chiqishni so'raydi.

Yuridik salohiyatlari jismoniy shaxs Ommaviy ofertada belgilangan harakatlar amalga oshirilgungacha Foydalanuvchi sharhnomasi shartlariga asosan yoxud Foydalanuvchi, yoxud Keluvchi hisoblanadi va Kompaniya, Foydalanuvchi sharhnomasida belgilangan shaxslardan tashqari, bunday shaxs oldida hech qanday majburiyatlarga ega bo'lmaydi.

Agar Foydalanuvchi Ommaviy ofertaning biron-bir bandiga rozilik bildirmasa, Kompaniya Foydalanuvchini Ommaviy oferta Akseptini, shuningdek Kompaniya xizmatlaridan foydalanishni, xuddi shuningdek BirBir platformasi funksionalidan foydalanishni rad qilishga chaqiradi.

Ommaviy ofertani qabul qilgan (akseptlagan) shaxs bu orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga (bundan buyon matnda – "O'zR qonun hujjatlari") asosan Sharhnomalar tuzish barcha vakolatlariga ega ekanligini va to'liq mustaqil javobgar bo'lishini tasdiqlaydi.

Sharhnomalar Kompaniya tomonidan istalgan vaqtida, Foydalanuvchi biron-bir maxsus xabardor qilinmagan holda o'zgartirilishi mumkin. Sharhnomaning yangi tahriri, agar Kompaniya tomonidan bevosita boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, Kompaniyaning Internet tarmog'ida <https://birbir.uz/ru/legal> manzili bo'yicha saytida joylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Sharhnomaning amaldagi tahriri bilan muntazam ravishda tanishib chiqish Foydalanuvchi vazifasi hisoblanadi. Sharhnomaning amaldagi tahririni Internet tarmog'ida <https://birbir.uz/ru/legal> manzili bo'yicha olish mumkin.

Taraflar Sharhnomalar shartlarini bajarishda O'zR amaldagi qonun hujjatlariga, shuningdek Sharhnomaning ajralmas qismi hisoblangan Foydalanuvchi sharhnomasiga (unga barcha ilovalar va qo'shimchalar bilan) amal qiladilar.

## **1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR**

Sharhnomada Internet tarmog'ida <https://birbir.uz/ru/legal> manzili bo'yicha joylashtirilgan BirBir platformasi qoidalari ta'riflangan atamalardan foydalanilishi mumkin.

<b>Xizmat (Xizmatlar)</b>	BirBir platformasida «E'lolnarni premium-rasmiylashtirish» sifatida belgilangan va nomlangan harakatlar ro'yxati.
<b>Buyurtmachi</b>	Ommaviy oferta akseptini amalga oshirgan har qanday yuridik salohiyatlari jismoniy shaxs.
<b>Ijrochi</b>	Buyurtmachi tomonidan tanlangan xizmatlar to'lovi sifatida Buyurtmachidan pul mablag'larini olgan Kompaniya («DOSKA» MChJ).

<b>Ommaviy oferta Aksepti</b>	Ijrochi saytida Buyurtmachi tomonidan Xizmatlar tanlovi va uning BirBir platformasidagi to'lov servisi orqali to'lovi.
<b>BirBir platformasi</b>	Internet tarmog'idagi <a href="http://www.birbir.uz">www.birbir.uz</a> manzili bo'yicha sayt va Ijrochining mobil ilovasi.
<b>BirBir platformasi qoidalari</b>	Internet tarmog'idagi <a href="https://birbir.uz/ru/legal">https://birbir.uz/ru/legal</a> manzili bo'yicha saytda va Ijrochining mobil ilovasida joylashtirilgan.

## 2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Ijrochi Buyurtmachi tomonidan Ommaviy oferta Akseptlanganidan so'ng Buyurtmachiga axborot-texnik xizmatlar (bundan buyon matnda – "Xizmatlar") ko'rsatadi. Buyurtmachi tomonidan yuqorida qayd etilgan harakatlarning amalga oshirilishi Ommaviy ofertada belgilangan barcha shartlar to'liq qabul qilingan hisoblanadi.

## 3. XIZMATLAR KO'RSATISH SHARTLARI VA TARTIBI

3.1. Xizmatlar quyidagi tartibda ko'rsatiladi:

- BirBir platformasi servisi orqali va faqat Buyurtmachi tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilganidan so'ng avtomatik ravishda;
- O'zbekiston Respublikasi hududida.

3.2. Boshqa Xizmatlar BirBir platformasi qoidalarida belgilangan usulda va muddatlarda ko'rsatiladi.

3.3. Xizmatlarni olish shartlari:

- Xizmatlar to'lovi;
- BirBir platformasi qoidalariga rioya qilish.

3.4. Ijrochining Xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatları Buyurtmachining BirBir platformasi qoidalariga rioya qilish va Xizmatlar to'lovi bo'yicha majburiyatlariga nisbatan javob tartibidagi majburiyatlar hisoblanadi. Buyurtmachi tomonidan ushbu majburiyatlar bajarilmagan holatda Ijrochi O'zR FKda nazarda tutilgan huquqlarga asosan tegishli qismda Xizmatlar ko'rsatishini to'xtatib qo'yishi yoki rad qilishi mumkin.

3.5. Taklif qilinadigan Xizmatlarning Buyurtmachining e'lolar va boshqa takliflar berish bo'yicha shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan xususiyatiga asosan Shartnoma doirasida Ijrochi unga murojaat qilgan har bir shaxsga Xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarni o'ziga qabul qilmaydi va Xizmatlar ko'rsatishini rad qilishi mumkin. Masalan, Xizmatlarni taqdim qilish BirBir platformasi qoidalariga, uning mavzusiga, toifalariga va boshqa qoidalarga javob bermaydigan holatlarda.

3.6. Ko'rsatiladigan Xizmatlar o'zgartirilishi, to'ldirilishi, yangilanishi mumkin, shu tufayli ularni tanlash "joriy holat" rejimida, ya'ni Buyurtmachi Xizmatlarga va BirBir platformasi servislariiga murojaat qilgan paytdagi Ijrochi tomonidan taqdim qilinadigan shaklda va hajmda taklif qilinadi.

3.7. Ijrochi Buyurtmachiga BirBir platformasida Buyurtmachining Shaxsiy kabinetidagi aloqa bog'lash ma'lumotlari bo'yicha Shartnoma yoki Shartnoma doirasida tuzilgan bitimlardan istalgan biri ijrosi bilan bog'liq bildirish xatlari, shu jumladan Xizmatlar ko'rsatish maqomi, Xizmatlar ko'rsatishni uzaytirish, shartlarini o'zgartirish usullari to'g'risida xabarnomalar hamda SMS- va push-xabarnomalar, elektron pochta va telefon qo'ng'iroqlari orqali boshqa axborot xabarnomalarini yuborishga haqli.

3.8. Ijrochi Buyurtmachiga muayyan Xizmatlarni bepul asosda ham taqdim qiladi, shu jumladan BirBir platformasida E'lolarni joylashtirish to'lovsiz amalga oshiriladi.

3.9. BirBir platformasida Xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshiriladigan har bir bitimning ahamiyatli shartlari BirBir platformasi interfeysi yordamida Buyurtmachi uchun onlayn yakka tartibda shakllantiriladi, u orqali Buyurtmachi Xizmat va uning parametrlarini tanlaydi, Taraflar tomonidan bitim shartlari o'zaro kelishib olinadi.

3.10. Ko'rsatiladigan Xizmatlar ro'yxati BirBir platformasida joylashtirilgan.

## 4. KO'RSATILGAN XIZMATLARNI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Xizmatlar ko'rsatilganligi fakti Buyurtmachi tomonidan tanlangan va to'langan Xizmatlarga kiritilgan harakatlarning Ijrochi tomonidan amalda bajarilishi bilan tasdiqlanadi.

4.2. Buyurtmachi Xizmatlar to'lovidan so'ng E'longa har qanday turdag'i o'zgartishlar kiritgan holatda, agar

kiritilgan o'zgartishlar O'zR qonun hujjaligiga va/yoki BirBir platformasi qoidalari zid bo'lsa, Ijrochi bunday E'ltonni olib tashlash huquqini o'zida qoldiradi. Bunda, Xizmat tegishlichka ko'rsatilgan hisoblanadi, Buyurtmachi tomonidan to'langan pul mablag'lari esa qaytarilmaydi.

## 5. XIZMATLAR QIYMATI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

5.1. Xizmatlar qiymati avtomatik ravishda shakllanadi va tanlangan E'lon toifasiga, hududiy mansublikka hamda muhim ahamiyatga ega va BirBir platformasida belgilangan boshqa omillarga qarab o'zgarishi mumkin.

5.2. Xizmatlar uchun quyidagi tartibda to'lanadi:

- BirBir platformasida avtomatik ravishda shakllangan summada;
- O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi — so'mda; pul mablag'larini yuborish bilan bog'liq komissiya xarajatlarini Buyurtmachi o'ziga qabul qiladi;
- BirBir platformasiga ulangan to'lov tashkilotlari, banklar orqali;
- to'lojni amalga oshirish paytida amaldagi narxlar bo'yicha.

5.3. Xizmatlar to'lovida Buyurtmachi bunday to'lov tashkilotining (uning tomonidan to'lov uchun tanlangan tashkilotning) Ommaviy ofertasi bilan mustaqil ravishda tanishib chiqish majburiyatini oladi va bunday to'lov tashkiloti (bank) bilan o'zaro hamkorlik xavf-xatari uchun mustaqil ravishda javobgar bo'ladi.

5.4. Xizmatlar to'lovi bo'yicha majburiyat Ijrochining hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazilgan paytdan e'tiboran bajarilgan hisoblanadi.

5.5. Buyurtmachi to'lojni BirBir platformasida belgilangan muddatlarda avtomatik ravishda amalga oshiradi. Buyurtmachi boshqa vaqt oralig'ida shakllangan Xizmatlar qiymati BirBir platformasida oldin belgilangan narxdan farq qilishi mumkinligi to'g'risida xabardor qilingan.

## 6. PUL MABLAG'LARINI QAYTARISH TARTIBI

6.1. Foydalanilmagan pul mablag'lari qoldig'inining qaytarilishi faqat chop etiladigan E'londonning birinchi moderasiyasi o'tmagan holatda amalga oshiriladi.

6.2. Buyurtmachiga pul mablag'lari quyidagi holatlarda qaytarilmaydi:

- taqdim qilingan Xizmatlar doirasida muddat tugagunigacha Foydalanuvchi va Keluvchi o'rtasida to'langan Xizmatlar bilan E'lon asosida bitimlar tuzilganida;
- Buyurtmachi E'lon joylashtirilganidan so'ng unga Ijrochi talablariga va/yoki O'zR qonun hujjaligiga javob bermaydigan o'zgartishlar kiritgan holatda, E'ltonni joylashtirish rad qilinganida.

6.3. Pul mablag'lari Buyurtmachining boshqa E'londonlariga nisbatan ishlatilishi mumkin emas. Masalan, agar Buyurtmachi Xizmatlar uchun 7 (etti) kun muddat bilan to'lagan, ushbu E'lon bo'yicha bitim esa qayd etilgan muddat tugagunigacha tuzilgan bo'lsa, pul mablag'lari qaytarilishi ham, boshqa Xizmatlar bo'yicha oldindan to'lov sifatida ishlatilishi ham mumkin emas.

6.4. To'langan Xizmat, Buyurtmachi fikricha, kerakli (uning tomonidan kutilgan) natija bermagan holatda, bunday Xizmat uchun Ijrochi tomonidan olingan pul mablag'lari qaytarilmaydi.

6.5. Har bir Xizmat BirBir platformasida belgilangan uni ko'rsatish muddatiga ega. Foydalanuvchi va Keluvchi o'rtasida Xizmatlarda qayd etilgan muddat tugagunigacha Foydalanuvchi tomonidan E'ltonni joylashtirish bo'yicha bitim tuzilganida pul mablag'lari Buyurtmachiga qaytarilmaydi, xuddi shuningdek Foydalanuvchining boshqa E'londoni uchun Xizmatlar to'loviga to'liq ham, qisman ham ishlatilishi mumkin emas.

## 7. TARAFLAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

### 7.1. Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarni oladi:

7.1.1. Quyidagilar bilan tanishib chiqish:

- BirBir platformasi qoidalari bilan tanishib chiqish va ularga rioxaya qilish;
- Xizmatlar to'lojni amalga oshirish uchun uning tomonidan tanlangan to'lov tashkiloti / bankning Ommaviy ofertasi.

7.1.2. O'z shaxsiy ma'lumotlarini ishslash uchun rozilik bergan holda BirBir platformasida barcha kerakli axborot maydonlarini to'ldirish.

7.1.3. Ijrochiga Xizmatlar uchun to'lojni o'z vaqtida amalga oshirish.

7.1.4. Xizmatlar to'lovini amalga oshirishda ehtimoliy qo'shimcha xarajatlarni mustaqil ravishda to'lash.

## 7.2. **Buyurtmachi quyidagilarga haqli:**

7.2.1. Ijrochidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlar o'z vaqtida va tegishlicha bajarilishini talab qilish.

7.2.2. Ijrochi tomonidan taqdim qilingan login va paroldan foydalanilgan holda BirBir platformasidan savdo operasiyalarini mustaqil ravishda amalga oshirish uchun foydalanish, bunda bitimlar bo'yicha oqibatlar, xavf-xatarlar uchun Buyurtmachining o'zi javobgar bo'ladi.

7.2.3. BirBir platformasida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng Ijrochi Xizmatlarini xarid qilish.

## 7.3. **Buyurtmachi quyidagilarga haqli emas:**

7.3.1. Ijrochidan uning Shaxsiy kabinetiga tegishli bo'lмаган ma'lumotlar taqdim etilishini talab qilish.

## 7.4. **Ijrochi quyidagi majburiyatlarni oladi:**

7.4.1. Buyurtmachi tomonidan to'langan Xizmatlarni tegishli to'langan Xizmatlarda nazarda tutilgan muddatlarda ko'rsatish.

7.4.2. O'zR qonun hujjatlarida nazarda tutilgan axborot maxfiyligiga rioya qilish.

7.4.3. Ijrochi tomonidan BirBir platformasi faoliyatini to'xtatib qo'yish, bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingan yoki Kompaniyaning o'zi ixtiyoriy ravishda tugatilgan holatda:

- bunday qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran 2 (ikki) ish kuni mobaynida ommaviy axborot vositalarida, Kompaniyaning Internet tarmog'idagi [www.birbir.uz](http://www.birbir.uz) manzili bo'yicha rasmiy saytida tegishli axborotni e'lon qilish.

## 7.5. **Ijrochi quyidagilarga haqli:**

7.5.1. Quyidagi holatlarda Xizmatlar taqdim qilinishini rad etish:

- Buyurtmachi tomonidan Shartnoma shartlariga va/yoki BirBir platformasi qoidalariga rioya qilinmagan holatda;
- Xizmatlar so'ralishiga tegishli E'lon mazmuni haqiqiyligiga shubhalar paydo bo'lgan holatda;
- E'lon Ijrochi tomonidan va/yoki O'zR qonun hujjatlarida belgilangan talablarga javob bermagan holatda;
- Xizmatlar uchun to'lov amalga oshirilmagan holatda.

7.5.2. Buyurtmachining qo'shimcha rozilgisiz bir tomonlama tartibda Shartnomaga o'zgartishlar kiritish, bu haqda Buyurtmachi Shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilinishi shart.

## 7.6. **Ijrochi quyidagilarga haqli emas:**

7.6.1. Maxfiy axborotdan o'z manfaatlarida bitimlar tuzish uchun foydalanish, shuningdek uni boshqa shaxslarga bitimlar tuzish uchun berish, shu jumladan Buyurtmachining huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlarni amalga oshirish.

## 8. MAXFIYLIK

8.1. Taraflar har qanday paytda Shartnomaga va unda nazarda tutilgan majburiyatlarga nisbatan maxfiylikni ta'minlaydilar hamda Shartnomani bajarish davomida olingan har qanday axborotni ikkinchi Tarafning yozma shakldagi rozilgisiz uchinchi shaxslarga oshkor qilmaydilar.

8.2. Ijrochi faqat O'zR qonun hujjatlarida, bitimni bajarish joyida qo'llaniladigan huquq normalarida, Shartnomani tegishlicha bajarish davomida nazarda tutilgan holatlarda yoki amaliy oborot qoidalariiga asosan axborotni oshkor qilish talab qilinadigan holatlarda Buyurtmachi to'g'risidagi axborotni oshkor qilishga haqli.

## 9. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

9.1. Taraflar Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi uchun O'zR amaldagi qonun hujjatlariga asosan javobgar bo'ladir.

9.2. Buyurtmachi BirBir platformasida E'lonni joylashtirish faktining o'zi, shuningdek Ijrochiga Xizmatlar to'lovi Buyurtmachiga BirBir platformasiga Keluvchi va Buyurtmachi o'rtaida bitim tuzilishini kafolatlamasligini, tuzilgan bitimning o'zi esa turli xavf-xatarlar, shu jumladan majburiyatlar bajarilmasligi xavf-xatari bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini angaydi.

9.3. Shartnomani imzolash (akseptlash) orqali Buyurtmachi E'lon joylashtirish bilan bog'liq barcha xavf-

xatarlar to'g'risida xabardor qilinganligini va ushbu xavf-xatarlarni qabul qilishini tasdiqlaydi, shuningdek ushbu xavf-xatarlar salbiy ta'siri tufayli Buyurtmachiga zararlar yetkazilishi mumkinligini anglaydi va ushbu zararlarni Ijrochi to'lashga majbur emasligiga rozilik bildiradi.

9.4. Ijrochi Buyurtmachi oldida BirBir platformasi ishidagi to'xtalishlar, shuningdek bunday to'xtalishlar tufayli yuz bergen bitimlar tuzilmaganligi / bekor qilinganligi / to'xtatilganligi uchun javobgar bo'lmaydi, shu jumladan to'lov tashkilotlari, banklar kabi (cheklanmagan holda) boshqa axborot tizimlaridagi boshqa to'xtalishlar va bunday to'xtalishlar oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

9.5. Yuqorida qayd etilgan usullar bilan har qanday hujjatlar (shu jumladan, xabarnomalar, bildirish xatlari) olinganligi uchun Buyurtmachi javobgar bo'ladi. Ijrochi aloqa tizimlari nosozligi, provayderlar, aloqa operatorlari harakatlari / harakatsizligi, Buyurtmachi tomonidan Shaxsiy kabinetga kirish huquqi yo'qotilganligi va Ijrochining nazorat hududidan tashqaridagi boshqa vaziyatlar natijasida yuz bergen holatda, Buyurtmachi tomonidan hujjatlar / bildirish xatlari kechiktirilganligi yoki olinmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

9.6. Ijrochi BirBir platformasi servislarining Buyurtmachi ehtiyojlariga muvofiqligini va Buyurtmachi tomonidan BirBir platformasida Xizmatlar olinishi tufayli joylashtirilgan E'longa Keluvchilarning fikr-mulohazalari olinishini kafolatlamaydi.

## **10. JAVOBGARLIKNI RAD QILISH**

10.1. Ijrochi quyidagi holatlarda Buyurtmachi oldida javobgar bo'lmaydi:

- To'lov tashkiloti to'lov amalga oshirilishini rad qilishi;
- Xizmatlar to'lovidan so'ng Buyurtmachi tomonidan kutilgan natija olinmaganligi;
- Internet tarmog'idagi to'xtalishlar.

10.2. Ijrochi Xizmatlar tegishli ko'rsatilishi uchun barcha oqilona choralarini ko'rish majburiyatini oladi, biroq Buyurtmachi quyidagi sabablar bo'yicha Xizmatlardan foydalanish imkoniyati bo'lмаган holatda Buyurtmachining zararlari uchun javobgar bo'lmaydi va ularni kompensasiya qilmaydi:

- Xizmatlarni taqdim qilish amalga oshiriladigan umumiyligi foydalanish aloqa kanallari texnologik nosozliklari, Buyurtmachi tomonidan har qanday sabab bo'yicha Internet tarmog'iga kirish huquqi yo'qotilishi, ishdagi va ma'lumotlar uzatilishidagi xatolar, kamchiliklar, uzilishlar, aloqa liniyalari nuqsonlari va boshqa texnik to'xtalishlar;
- BirBir platformasi ishiga uchinchi shaxslarning ruxsatsiz aralashishi, shu jumladan xakerlik, DDoS-hujumlari, virusli dasturlar ta'sirlari va BirBir platformasi ishidagi boshqa buzilishlar;
- Buyurtmachi tomonidan Shaxsiy kabinetga kirish huquqi yo'qotilishi, shu jumladan undan ruxsatsiz foydalanish belgilari mayjud bo'lgan holatda;
- engib bo'lmas kuch vaziyatlari yuz bergen holatda.

## **11. SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI**

11.1. Buyurtmachi tomonidan Xizmatlar birinchi to'lovidan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kuni mobaynida Shartnomada belgilangan biron ta'sirini ham harakat amalga oshirilmagan holatda Shartnomada avtomatik ravishda bekor qilingan (Taraflar kelishuvi bo'yicha bekor qilingan) hisoblanadi.

11.2. Buyurtmachi tomonidan BirBir platformasi qoidalari buzilgan holatda Shartnomada avtomatik ravishda bekor qilingan (Ijrochi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilingan) hisoblanadi.

## **12. FORS-MAJOR VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

12.1. Taraflar Shartnomada bo'yicha majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarilmaganligi Shartnomada tuzilganidan so'ng yoki favqulodda xususiyatli hodisalar natijasida yuzaga kelgan, Taraflar oldindan bilishlari ham, oqilona choralar bilan oldini olishlari ham mumkin bo'lмаган yengib bo'lmas kuch vaziyatlari oqibatida yuz bergen holatda, ular bunday Shartnomada shartlari buzilganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

12.2. Nizolarni muzokaralar orqali hal qilish imkonini bo'lмаган holatda, Taraflar o'rtasidagi nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilish O'zR amaldagi qonun hujjatlariga asosan sud tartibida amalga oshiriladi va O'zR amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan ishlarni sudda ko'rib chiqish qoidalari qo'llanilgan holda Toshkent sudida ko'rib chiqiladi.

## **13. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

13.1. Shartnomada Buyurtmachi tomonidan Ommaviy oferta akseptlangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va quyidagi muddatgacha amal qiladi:

- Taraflar tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan paytgacha, aynan esa Buyurtmachi tomonidan Xizmatlar qiymati to'langan va Kompaniya tomonidan Xizmatlar qiymatiga muvofiq hajmda Xizmatlar ko'rsatilgan paytgacha yoxud
- Shartnoma bekor qilingan paytgacha.

## **14. YAKUNIY QOIDALAR**

14.1. Ijrochi O'zR amaldagi qonun hujjalari belgilangan doirada va tartibda davlat soliq xizmati organi, davlat monopoliyaga qarshi organi, shuningdek sud, dastlabki tergov va tergov organlari, davlat organlarining yozma shakldagi talablariga asosan o'z faoliyatiga tegishli ma'lumotlarni, Shartnoma tufayli va/yoki Shartnomaga asosan olingan axborotni va Shartnoma mazmunini oshkor qilishga haqli.

14.2. Taraflar Shartnomaning barcha shartlarini muhokama qildilar va ularni adolatli va o'zaro foydali deb e'tirof qilgan holda ushbu shartlarga rozilik bildirdilar hamda Shartnomani aldovsiz, chalg'itishlarsiz va majburlashsiz tuzdilar.

14.3. Shartnoma elektron shaklda tuzilgan va imzolangan.

14.4. Shartnoma bo'yicha barcha harakatlar O'zR amaldagi qonun hujjalariiga asosan amalga oshiriladi.

## **15. IJROCHI REKVIZITLARI**

### **IJROCHI**

#### **«DOSKA» MChJ**

Toshkent shahar, Yunusobod tumani,

“Minor” MFY, M-6, 70-uy.

h/r: 20208000607083194001

«Ipak Yo'li» AITB Mirzo

Ulug'bek filiali MFO 00421 STIR

311359740